

JIZZAX VILOYATIDA TOG'LI HUDUDLARIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA QISHLOQ TURIZMINING IMKONIYATLARI

Sanaeva Lola SHukurboevna

4-kurs biologiya yo‘nalishi sirtqi bo‘lim talabasi

Jizzax davlat pedagogika Universiteti

Suyunova Gulnoza

Jizzax davlat pedagogika Universiteti

4-kurs biologiya yo‘nalishi sirtqi bo‘lim talabasi

E-mail: sanaeva_08@mail.ru

ANNOTATSIYA

Jizzax biloyatidagi tog‘oldi qishloqlarida turizmni rivojlantirish uzoq tog‘li hududlar axolisi bandligini ta’milashda asosiy omillardan biri bo‘lishi mumkin. Jizzax viloyati qishloq axoloisining asosiy qismi tog‘oldi hududlarida joylashganligini hisobga olsak qishloq turizmi violyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muxim axamiyatga ega bo‘ladi.

Kalit so‘zlar. Tog‘oldi, ekoturizm, qishloq turizmi, qishloq axolisi, ijtimoiy-iqtisodiy, G‘o‘bdun, Ko‘kbuloq, Mirzabuloq va boshqa qishloqlar G‘allaorol tekisligida, G‘allakor, Gulshan, Chorvador, Omongeldi, G‘izilqum, Qoraobod, Eshbuloq, sangzor daryosi.

POSSIBILITIES OF RURAL TOURISM TO IMPROVE THE LIFE OF THE POPULATION IN THE MOUNTAIN AREAS OF JIZZAKH REGION

ABSTRACT

Razvitie turizma v gornyx selakh Dzhizakskoy oblasti mojet stat odnim iz osnovnyx faktorov obespecheniya zanyatosti naseleniya otdalennyx gornyx rayonov. Uchityvaya, chto bolshaya chast selskogo naseleniya Dzhizakskoy oblasti lives in the foothills, rural tourism plays a vital role in the economic and social development of the region.

Keywords. Mountain slopes, ecotourism, rural tourism, rural population, socio-economic, Göbdun, Kokbulok, Mirzabulok and other villages of the Gallaorol Plain, Gallakor, Gulshan, Chorvador, Amveneldi, Gyzilkum, Karaabad, Eshbulok, Sanzor River.

Qishloq turizmi dastlab XX asrning oxirlarida Sitsiliyada fermer ho‘jaliklari dalalariga ishchi kuchi etishmaganligi uchun talabalar va muhojirlarga tekin yotoq va ovqat taskil qilib berilishi evaziga dala ishlariga qarashishni etilishi bilan boshlangan Keyinchalik bu qiziquvchi sayyoqlar tomonidan alohida turizm yonalishi bo‘lib shakllandi O‘zbekistonda ham keyingi 10 yillarda ushbu soha jadalik bilan bilan rivojlanmoqda va turizmnинг ushbu sohasida ham zaruriy chora tadbirlarni amalgam oshirish dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Hozirda Jizzax viloyati tog‘li hududlariga Baxmal, Zomin, Forish, G‘allaorol, Yangiobod tumanlari kiradi. Ularning umumiyligi er maydoni 17,0 ming km kv, viloyat umumiyligi er maydonining 80 foizi, aholisi 491,2 ming kishi bo‘lib, viloyat umumiyligi aholisining 45 foizini tashkil etadi.

Mintaqa O‘zbekiston Respublika-sining qishloq xo‘jaligi rivojlangan hududlardan biridir. Viloyat aholisining asosiy qismi ham qishloqlarda istiqomat qiladi (74 %, 2007 y.). Shu bilan birga qishloq aholi manzilgohlarining joylashuvida ham o‘ziga xos ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish qonuniyatları mavjud.

XX asr o‘rtalarigacha yirik qishloqlar asosan tog‘ va tog‘ oldi zonalarida joylashgan bo‘lib, Mo‘g‘ol, Sartyuz, Oyqor, Bog‘ishamol kabi qishloqlar Sangzor vodiysida, G‘o‘bdun, Ko‘kbuloq, Mirzabuloq va boshqa qishloqlar G‘allaorol

tekisligida, G‘allakor, Gulshan, Chorvador, Omongeldi, G‘izilqum, Qoraobod, Eshbuloq singari bir qancha qishloqlar esa Zomin va Nurota tog‘ oldi hududlarida lentasimon qo‘inishda shakllangan. Qishloqlarning bunday hududiy tashkil topgani aholining katta - kichik soy va daryolar atrofida, suvgan yaqinroq joylashishga bo‘lgan intilishidir. Agar viloyatda umumiyligi qishloqlar soni 561 ta bo‘lsa shundan 80 foiz qishloqlar viloyatning tog‘li hududlarida joyashgan.

Tog‘lar mamlakatimizning estetik boyligi hisoblanadi. Shu bois ularni barqaror rivojlanishi qonuniyatlariga binoan kelajak uchun asrashimiz lozim. Bu yerlarda rekreatsiya va turizm, hususan agro va ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.

Yuqorida ta’kidlangan muammolar tobora keskinlashib borishi mumkinligini hisobga olgan holda, ularning oldini olish uchun quyidagi choralar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq:

- Tog‘ qishloqlarida aholi uy - joylari qurilishini tartibga solish;
- Aholi joylashuvi va uy - joy qurish, foydalanishi mumkin bo‘lgan hududlar chegarasini qat’iy belgilash;
- Qishloq joylar aholisini doimiy ish bilan ta’minlash, sanoat korxonalari, aholiga xizmat ko‘rsatish (servis) sohalarini rivojlantirish;
- Tog‘ qishloqlari aholisining turmush darajasini yaxshilash, mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanish;
- Tog‘ hududlarida zamonaviy rekreatsiya va turizm infratuzilmasini shakllantirish;
- Tog‘li hududlar er – suv resurslari va ularning muhofazasini ta’minlash.

Ushbu muammolarni hal etish Jizzax viloyati ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga tog‘ mintaqalari va ularning cho‘l hududlari bilan o‘zaro integratsiyasini amalga oshirish viloyatda yagona iqtisodiy makon shakllanishiga asos bo‘ladi.

Shunday ekan endilikda Jizzah viloyati qishloqlarining turiztik imkoniyatlarini har tomonlama taxlil etish, ya’ni madaniy meros ob’ektlari va arxeologik yodgorliklari, ziyoratgohlar va alohida qo‘riqlanadiga rekreatsion hududlar, sog‘lomlashtirish maskanlarining turiztik imkoniyatlarini o‘rganish va keng miqiyosda targ‘ib etish bu borada samarali chora tadbirlarni ishlab chiqishimiz uchun muhim omil bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. A.Ilashev Fan yutuqlari va ilg‘orlar tajribasi el-yurt hizmatida. T. 2009 y.
2. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Экологический туризм: сущность, тенденции и стратегия развития. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
3. Самойленко А.А. География туризма: Учебное пособие. - Ростов на Дону: «Феникс». 2006.
4. L.Sanaeva, B.Mirzaev Ekoturizm- iqtisodiyotning yangi tarmog‘i. “Kelajak bunyodkori” Jizzax viloyat hokimligi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi boshqarmasi gazetasi. № 4 (126). 5-bet. 2014 y 28-fevral.
5. Л.Санаева. Перспективы развития туризма в Узбекистане. CULTURAL AND HISTORICAL HERITAGE IN THE CONTEXT OF A MODERN OUTLOOK FORMATION. Peer-reviewed digest (kollektiv monograph) published following the results of the XCI International Research and Practice Philosophy, Culrturology, Physical aqnd Sports (London, November 05-November 10, 2014)